

YUZIGA KO‘ ZGUNI HAR DAM...

Zilola Ortiqova

SamDChTI akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoir Alisher Navoiy g‘azallarining mag‘zi va ularda ishlatilgan badiiy san’atlarning sehri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, g‘azal, yuz, ko‘zgu, oshiq, ma‘shuqa, quyosh, oy, dengiz, ko‘z yoshlari, husn, quyosh nuri, jahon, hayot, muhabbat, mevali daraxt, hosil, ishq, azob, chaqmoq, ko‘pik, shisha, zohid, taqvo, yoshlik, shamol, junun, husn, chiroy, shikoyat, ko‘ngil, xavotir, safar, Ka‘ba, xatar, maqsad, vasl, tan, ruh, jism, tuproq, tashbeh, tamsil, mubolag‘a

Mumtoz adabiyotda pesyaj, ijtimoiy, falsafiy va didaktik uslublar mavjud. Shoirning bu g‘azali ijtimoiy uslubda yozilgan bo‘lib, bu uslubning o‘ziga xos jihati shundaki, asosiy urg‘u jamiyatda bo‘ladigan muammolarga qaratiladi. Masalan, oila, sevgi, so‘z va shunga o‘xshash muammolar ochib berilgan.

Yuziga ko‘zguni har dam qilur ul siymbar moni’ ,

Aningdekkim quyosh ruxsorig‘a bo‘lg‘ay qamar moni’.

Har dam go‘zal ma‘shuqa yuzining ko‘zguda aks ettishini quyosh nurining oy yuzida jilvalanishiga tashbihlangan. Bundan ko‘rinadiki, yorning yuzi quyoshga, yorning ko‘zgusi esa oyga nisbatan tashbihlangan. Ma‘shuqaning yuzini ko‘rsatmasligi esa tamsil san’ati, ya‘ni real dalillash bilan ifodalangan. Oy bilan quyosh so‘zlari tanosib san’atini ham yuzaga chiqargan.

Jahonni ul quyoshning barqi husni o‘rtagay erdi,

Karonsiz bahri ashkim bo‘lmasa erdi agar moni.

Agar oshiqning dengiz kabi ko‘z yoshlari bo‘l maganda edi, yor husni quyosh nuridek butun jahonni kuydurardi. Oshiqning ko‘z yoshlari dengizga, yorning husni quyosh nurlariga o‘xshatilgan. Shu bilan birgalikda bu baytda mubolag‘a she‘riy san’ati qo‘llangan.

Quruq jismimni g‘am tiyg‘idin asrar dard ila shavqung.

Yig‘ochqa kesmagidin o‘ylakim bo‘lg‘ay samar moni’.

Oshiq o‘zini mevali daraxtga, ishq va azoblarini esa mevali daraxtning hosiliga tashbehlangan. Daraxtni kesib tashlashga mevasi to‘sqinlik qilishi tamsil san’ati bilan hayotiy dalillangan. Demak, oshiqni bu hayotda ushlab turgan narsa muhabbat bo‘ladi.

Qabul etman qanot egnim uza chiqsa og‘ir debkim,

Yo‘lungda barqdek po‘yamga bolg‘ay bolu par moni’.



Agar qanotlarim yelkamda og'ir yuk bo'lib qolsa ham, men bunga rozi bo'laman. Chunki sening yo'lingda chaqmoqdek yugurishimga hatto bir to'siq bo'lsa ham, uni pisand qilmayman. Haqiqiy oshiq yor yo'lida og'irlikni ham sharaf, to'siqni ham sinov deb biladi. Ishq yo'lida mashaqqat-bahona emas, balki fidoyilik belgisidir.

Oshiq o'z yurishini chaqmoq tezligiga o'xshatgan.

Ko'zum uzra hubobi ashk ul yuz moni'yi ermas,

Biaynih shishadekkim, bo'lmas aylarga nazar moni'.

Ko'zim ustidagi yosh pufakchalari ham u yor yuzini ko'rishga to'sqinlik qilmaydi. Xuddi shishadek –u ayblarni ko'rishga to'sqin bo'lmaydi. Pok vas of nigoh husnni ko'radi, aybni esa izlamaydi. Oshiqning ko'z yoshlarining ko'piklari tiniq shishaga o'xshatilgan.

Dema zohidki, taqvog'a ne moni'durki, bordurlar

Shabobu bodavu ishqu jununum sarbasar moni'.

Dunyodan yuz o'giran , faqat taqvoni da'vo qiluvchi zohidga murojaat qilib aytadiki: "Taqvoga nima monelik qildi deb aytma. Chunki mening yoshlik davrim shamolday o'tib ketdi. Ishq va junun (telbalik) esa meni sarson-sargardon qilib yubordi". Ya'ni shoir o'zining taqvoga yetolmaganini oqlamaydi, balki buning sababini yoshlikning tez o'tishi, ishqning hukmronligi va majnunlik holati bilan bog'laydi. Yoshlikni shamolga o'xshatmoqda. Bu yerda yoshlikning beqarorligi va tez o'tib ketishi nazarda tutilgan.

Og'iz birla qadu qoshu ko'zung zuhdumg'a qo'ymaslar,

Nechuk qilg'ay kishi bir ishki, bo'lg'ay bu qadar moni'.

Ma'shuqaning husnini tasvirlashda ta'did san'atidan foydalanilgan. Oshiqning taqvo yo'lini tanlashda ma'shuqa chiroyi qo'ymayotgani uchun oshiq ma'shuqaning chiroyidan shikoyat qilishi tasvirlangan.

Ko'ngul baytulharomi tavig'a moni' xavotirdur,

Safarg'a Ka'ba sari o'ylakim bo'lg'ay xatar moni'.

Qalbimdagi tashvishlar ko'nil Ka'basini tavof qilishga to'sqinlik qilmoqda. Ka'ba tomon safar qilishni o'ylasam ham, o'zinga xavf tug'ilgandek tuyuladi. Bu baytda shoir tasavvufiy-falsafiy fikrni ifodalaydi. Ko'nglim Ka'bani, ya'ni Haqni tavof qilishga to'sqinlik qilayotgan narsa-ichki xavotirlarimdir. Bu yerda xatar-nafaqat jismoniy, balki ma'naviy xatar, ya'ni yo'lda nafs, shubha, gunohlar insonni yo'ldan ozdirishi mumkinligi nazarda tutiladi. Insonni Haqqa yetishishdan to'sadigan eng katta to'siq-uning o'z ichidagi xavotir va nafsdir.

Navoiy jonig'a tan gardi ermish moni'yi maqsud,

Nasimi vasl eskach fayz bog'idin ketar moni'.

Oshiqning maqsadi yor vasli; agar tan bunga monelik qilsa, tanni ham tark etishga qodir. Demak, Navoiyning ruhi maqsadiga yetishi uchun jismi tuproqqa qarshilik qilishi tasvirlangan.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Najmiddin Komilov Ma'nolar olamiga safar "Tamaddun" .Toshkent-2012
2. Dilnavoz Yusupova Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi Toshkent-2022
3. Husanboyev Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi.-Toshkent, 2018-352b.
4. To'xliyev B., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o'quv dastur).-T:O'qituvchi, 2000.-288b.
5. To'xliyev B., Mirsamiqova R., Ametova O. "Adabiyot" (majmua) Akademik litseylarning ikkinchi bosqichi uchun darslik.-"Bayoz", 2016
6. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot 10-sinf I qism "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlatilmiy nashriyoti Toshkent-2017

